

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” da amalga oshirishga oid
Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida
TAHLILIY MA’LUMOT**

2025 yil 29 sentyabr holatiga

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Mas’ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
1	4.2-band. “Olmaliq KMK” AJni transformatsiya qilish va ishlab chiqarish xarajatlarini 15-20 foizgacha qisqartirish maqsadida 2025 yakuniga qadar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan ESG reytingi olinishini ta’minlash.	1. Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari asosida korporativ dasturlar ishlab chiqish; 2. Jamiyatda ESG milliy hisobotini yo‘lga qo‘yish va jamoatchilikka oshkor etish amaliyotini joriy etish; 3. “Olmaliq KMK” AJ tomonidan ESG reytingi olinishini ta’minlash.	2025 yil dekabr	Korxonalar-ning o‘z mablag‘lari	“Olmaliq KMK” AJ	To‘liq bajarildi. Barqaror rivojlanish hisoboti (ESG) ilk bor 2020 yil yakuni bo‘yicha xalqaro GRI standards talablariga muvofiq nashr etildi. Pricewater’ouseCoopers (PwC) kompaniyasi ishtirokida Kombinatning ishlab chiqarish obyektlarida, shu jumladan mis ishlab chiqarish segmentida issiqxona gazlari emissiyasini (Scope 1 + Scope 2) hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi va tadbiq etildi. PwC kompaniyasi tomonidan Kombinatning ESG profili ilg‘or tajribalar va mas’uliyatli moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tahlillar o‘tkazildi, ISO 50001:2018 – Energiyani boshqarish tizimi, ISO 14001:2015 – Atrof-muhitni boshqarish tizimi va ISO 45001:2018 – Sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi xalqaro sertifikatlari olindi. Olib borilayotgan tashkiliy va boshqaruv islohotlar doirasida barqaror rivojlanishni samarali tashkil etish maqsadida alohida tarkibiy bo‘linma (ESG bo‘limi) tashkil etildi.

					Mas’uliyatli mineral yetkazib berish tashabbusi tavakkalchilik mezonlariga muvofiq Tadbirlar dasturi hamda Kuzatuv kengashi huzurida Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo’mita tuzildi. Korruptsiyaviy tavakkalchiliklarni nazorat qilish uchun 18 ta me’yoriy hujjat ishlab chiqildi. 2023 yil bo’yicha Barqaror rivojlantirish hisoboti mustaqil ravishda tayyorlandi. Issiqxona gazlari emissiyasi (Scope 1 + Scope 2) hisoblanib, xalqaro auditdan o’tkazildi va ijobiy auditorlik xulosasi olindi. Korporativ boshqaruv hujjatlari (siyosat, nizom, kodeks va reglamentlar) xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilib, yuqori organlar tomonidan tasdiqlandi. Shaffoflikni yanada oshirish maqsadida, Kombinatning rasmiy veb-saytida ESG sahifasi yaratildi. Barqaror rivojlanishga oid barcha hisobotlar va zarur ichki hujjatlar shu saytda joylashtirib borilmoqda. 2025 yil 18 fevralda “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan Kombinatga barqaror rivojlanishning (ESG) 3-reyting darajasi berildi. Bunda olingan baho 56 ballni tashkil etdi (Respublika kon-metallurgiya korxonalari ichida eng yuqori ball). Tegishli axborot va tasdiqlovchi hujjatlar Adliya Vazirligiga kiritildi (04.04.2025y. 04-25/01-497-sonli xat).
II. BARQAROR IQTISODIY O’SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH.					
48-maqсад: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to’liq ishga solish.					
Ijro uchun asosiy mas’ul — Tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov)					

3	14. “Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” (<i>I navbat 1-bosqich</i>) investitsiya loyihasi doirasida 60 mln. tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-Mis boyitish fabrikasini to‘liq ishga tushirish.	1. 65 mln. tonna ma’danni tashish quvvatiga ega siklli oqim texnologiyasi qurilishi doirasida qurilish-montaj ishlarini to‘liq yakunlash.	2025 yil may	TIAga muvofiq “Olmaliq KMK” AJ mablag‘lari va xorijiy bank kreditlari)	“Olmaliq KMK” AJ	Bajarilmoqda. “Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” (<i>I bosqich, 1-navbat</i>) investitsiya loyihaci doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1. 3-MBFni qurish. 3-MBFni “foydalanishga tayyor holda topshirish” sharti bilan qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Qurilishda texnik nazoratni amalga oshirishga “Worley Parsons” xorijiy kompaniyasi jalb qilingan. Qurilish maydonida 785,1 ming kub m beton ishlari, 109,7 ming tonna armaturalash ishlari bajarildi, 40,4 ming tonna texnologik uskuna va 63,1 ming tonna metall konstruksiya montaj qilindi. 2. Asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish. 3-MBF va TSOT-ma’dan qurilishi doirasida barcha asosiy texnologik uskunalar yetkazib berildi hamda montaj va sozlab ishga tushirish ishlari olib borilmoqda 3. 3-MBF infratuzilma obyektlarini qurish. Qoldiqlarni saqlash xo‘jaligida (1-xarita) to‘g‘on poydevorini qurish bo‘yicha 20,2 mln kub m tuproq ishlari bajarildi va 11,3 ming m quvur yotqizildi. Tashqi suv ta‘minoti obyektlari qurilish maydonida 109 km suv quvurlari yotqizildi, shuningdek, 1,8 mln kub m tuproq ishlari, 3 ming tonna armaturalash, 19,3 ming kub m beton ishlari bajarildi. Hozirgi kunda, 3-MBF va uning infratuzilma obyektlari qurilishiga jami 9 451 ta ishchi va 1 150 ta maxsus texnika jalb qilingan.
		2. 3-mis boyitish fabrikasi uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish, o‘rnatish va montaj qilish ishlarini yakuniga yetkazish.	2025 yil iyun			
		3. 60 mln. tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-Mis boyitish fabrikasining birinchi liniyasini foydalanishga topshirish.	2025 yil iyul			

						<i>Ma'lumot uchun.</i> <i>Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2025 yil 28 iyundagi 75-son bayoni 6.1-ilova 46-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida o'tkazilgan 2025 yil 29 iyuldagi sayyor majlis 134-son bayoni hamda "OKMK" AJ Kuzatuv kengashining 2025 yil 15 sentyabrdagi 18-son bayoni bilan 3-MBFni ishlarni to'liq yakunlash muddatlari 2025 yil 30 dekabrga qadar uzaytirilgan.</i>
--	--	--	--	--	--	---